

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 02/09.07.2020.Tar.70.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NAZAROVA DILNOZA ERALIYEVNA

**TOSHKENT SHAHRI MUZEYLARI: SHAKLLANISHI, RIVOJI VA
MUZEYLASHTIRISH TAMOYILLARI**

**07.00.01 - O‘zbekiston tarixi
17.00.06 - Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni
konservatsiya qilish, ta’irlash va saqlash**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Nazarova Dilnoza Eraliyevna

Toshkent shahri muzeylari: shakllanishi, rivoji va muzeylashtirish tamoyillari..... 3

Назарова Дилноза Эралиевна

Музеи города Ташкента: формирование, развитие и принципы музеефикации. 23

Nazarova Dilnoza Eralievna

Museums of the city of Tashkent: formation, development and principles of museumfication..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 02/09.07.2020.Tar.70.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NAZAROVA DILNOZA ERALIYEVNA

**TOSHKENT SHAHRI MUZEYLARI: SHAKLLANISHI, RIVOJI VA
MUZEYLASHTIRISH TAMOYILLARI**

**07.00.01 - O‘zbekiston tarixi
17.00.06 - Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni
konservatsiya qilish, ta’irlash va saqlash**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/ Tar. 70.03 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.history-museum.uz>) hamda «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailova Jannat Hamidovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
tarix fanlar doktori (DSc), dotsent

Xatamova Ra'no Zafarjon qizi
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.02/09.07.2020. Tar. 70.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100029, Toshkent shahri, Sahrof Rashidov ko'chasi, 3-uy. O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kichik majlislar zali. Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83; email: info-historymuzeum@academy.uz O'zbekiston tarixi davlat muzeyi).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston tarixi davlat muzeyining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:100029, Toshkent shahri, Sahrof Rashidov ko'chasi, 3-uy). O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kichik majlislar zali. Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «__» _____ dagi _____ raqamli ryestr bayonnomasi).

B.V. Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi
t.f.d., professor.

D.O. Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD),
katta ilmiy xodim.

S.T. Davlatova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda muzeylar umuminsoniy tarixiy-madaniy meros hisoblanib, ularning maqomi turli me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkam belgilangan. Ayniqsa, san'at va madaniyat shiddat bilan yangilanish jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda muzey ishini va muzeyshunoslikni isloh qilish talab etilmoqda. Muzeylar bir butun holda faoliyat olib borish uchun turli nazariy va amaliy muammolarni aniqlash va yechimini topish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muzeylarning tarixiy ahamiyatini oshirish va undagi tarixiy merosga hurmat hissini oshirish, ekspozitsiyalarni yaratishda raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda yirik ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro muzeylar kengashi tomonidan tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish hamda muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida turizm xizmatlar bozorini kengaytirishga oid masalalarni o'rganish jahon muzeyshunosligidagi asosiy ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Muzeylarni tadqiq etish, ularning tarixiy ahamiyati, ekspozitsiyalarni yaratish, namoyish etish va rivojlantirish kabi masalalar zamonaviy muzeyshunoslikning asoslari sifatida muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda muzeylar sohasini rivojlantirish, milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash hamda namoyish etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shunga ko'ra «madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish bo'yicha rejalar aniqlashtirildi»¹. Unga muvofiq kamida 3 ta noyob madaniy meros obyektini YUNESKO xalqaro ro'yxatlariga kiritish, 158 ta madaniy meros obektini asrashga doir ishlarni bajarish, muzeylarga yillik tashrifni besh millionga yetkazish, ikki yarim million muzey ashyosini raqamlashtirish vazifasi belgilangan. Bu borada, Toshkent shahrida joylashgan turli yo'nalishga oid muzeylar fondini ko'paytirish, muzey ashyolarini restavratsiya hamda konservatsiya qilish bo'yicha tajriba almashish, muzeylararo amaliyotlarni tashkil qilish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar belgilangan. Mazkur tadqiqot ishi ham yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish jarayonlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 12-iyunda qabul qilingan «Muzeylar to'g'risida»gi O'RQ-177-son qonuni² (2021-yil 26-noyabrda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilingan), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'jallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» farmoni, 2022-yil 27-maydagi PQ 261-son «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda «2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 975-son Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон-2030» стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармони.

² O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 12-iyunda qabul qilingan «Muzeylar to'g'risida»gi O'RQ-177-son qonuni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlarini uchta guruhga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiq: 1) Sovet davrida yaratilgan asarlar; 2) Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar; 3) Xorijiy adabiyotlar.

Birinchi guruh nashrlarida Toshkent shahrida tashkil topgan muzeylar va ularning faoliyatiga oid tadqiqotlar oʻrganilgan³. Mazkur asarlar dissertatsiyani yoritishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Bu davrga oid tadqiqotlar tarixiy-maʼnaviy va moddiy merosimizni tiklash, oʻrganish hamda ularning shakllanish tarixini nazariy tahlil qilishda muhim bosqich hisoblanadi. Sovet davrida mavzu doirasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, nashr etilgan kitoblar muzeyshunoslar, sanʼatshunoslar, tarixchilar tomonidan tayyorlangan⁴. N.Mayev, N.P.Ostroumov, V. Bartold, A.A.Semyonov, B.Lunin, M.E.Masson, A.Yu.Yakubovskiy, Yu.I.Glass, L.M.Landa, Ye.Temina kabi tadqiqotchilarning asarlarida muzeylarning turli davrlardagi faoliyati, kolleksiyalarni toʻplash jarayonlari va madaniy sohani rivojida oʻrni xar xil yondashuvlar kesimida aks etgan. N.Sodiqova Oʻzbekiston muzeyshunosligi asosini boshlab bergan olim sifatida tadqiqot olib borib, oʻz tadqiqotlarida Oʻzbekistonda muzeylarning paydo boʻlishi va rivojlanish omillari, sovet hukumati davrida muzeyshunoslik sohasida olib borilgan ishlar kompleks ravishda tahlil qilingan. Bundan tashqari tashrif buyuruvchilarning milliy tarkibi hamda uy-muzeylarining faoliyatiga ham toʻxtab oʻtilgan.

Mavzuga oid eʼlon qilingan hujjatlar va materiallar toʻplami tadqiqot manbashunosligining bir qismini tashkil qiladi⁵. Sovet davrida chop etilgan barcha

³ Описание археологической и нумизматической коллекций, принадлежащих Ташкентскому музею и Туркестанскому кружку археологии. При участии студентов императорского Санкт-Петербургского университета. - Ташкент, 1900; Остроумов Н.П. Отчет Археологической комиссии за 1882-1888 гг., СПб, 1890; Маев Н. Осенняя выставка в Ташкенте // Туркестанские ведомости. -№ 49. 1886; Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. Сочинение, Т.П. 1963; Семёнов А.А. Лунин Б. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. - Ташкент: Фан, 1958.

⁴ Массон М.Е. Монетные находки в Средней Азии. 1917-1922 гг. // Известия Средазкомстариса. Вып. III. - Ташкент, 1928; Массон М.Е., Якубовский А.Ю. Образы старого Самарканда // Известия Средазкомстариса. Вып. III. - Ташкент, 1928; Гласс Ю.И., Ланда Л.М. Музеи Узбекистана. Путеводитель - справочник. - Ташкент: Госиздат, 1961; Е.Темина «Теоретические вопросы взаимодействия музыкальных систем устной и композиторской традиции в регионе Востока (на материале творчества М. Ашрафи). Автореф. дисс. кандидат. искусств. наук. - Москва. 1984; Ўша муаллиф. Музей Мухтара Ашрафи. - Ташкент: Литературы и искусства имени Гафура Гулама. 1986; Мухтор Ашрафий олами. - Тошкент. 1986; Ўша муаллиф. Мухтор Ашрафий музейи. - Тошкент. 1987; Материалы к путеводителю по Музею истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека АН. - Ташкент: Фан, 1990., Садыкова Н. Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека / Наука в Узбекистане. Т.П. Общественные науки. - Ташкент: Фан, 1974; Ўша муаллиф. Музейное дело в Узбекистане. - Ташкент: Фан, 1975; Ўша муаллиф. Маданий меросимиз хазиначиси. - Тошкент: Фан, 1981; Ўша муаллиф. Единство научно-исследовательской и идейно-воспитательной работы музеев Узбекистана. Ташкент: Фан, 1987; Ўша муаллиф. Историография и источники по музейному строительству. Ташкент: Фан, 1987; Ўша муаллиф. Мулки торож ўзбегим. Тошкент: Фан, 1995;

⁵ История образования в архивных источниках. (По материалам ЦГА РУз) Том I. (1867-1917 гг.). Сборник документов. - Ташкент: Yangi nashr, 2015; История образования в архивных источниках. (По материалам ЦГА РУз) Том II. (1917-1991 гг.). Сборник документов. - Ташкент: Yangi nashr, 2015.

adabiyotlar va tarixiy xujjatlarda asosan muzeylar faoliyatini o'sha davr mafkurasiga asosida tadqiq etilganini ko'rish mumkin.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga bugungi kundagi yetakchi muzeyshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiritilgan. Xususan, J.Ismoilova, L.Levteyeva, R.Almeyev, D.Qurbonova, D.Kuryazova, E.Axmedov, R.Fatxullayev, I.Jabborov, D.Rahimova, N.Habibullayev, O'.Yormammedov, Sh.Vohidov, J.Yoqubov, O.Toshmuhammedova kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy asari va maqolalarida Toshkent shahari muzeylarining ayrim jihatlari yoritilgan⁶. Muzeyshunoslik va tarix nuqtai nazaridan: R.Almeyev, D.Kuryazova, D.Qurbonova, A.Ismailov, M.Muhammedova, Sh.Miraliyeva, B.Hasanov, V.Fayziyeva, S.Boymirzayev, M.Yunusov, N.Axmedjonov, B.Boltayev, Sh.Elmuratova⁷ kabi tadqiqotchi olimlarning monografiya va tadqiqot ishlarida muzeyshunoslik va tarixiy bosqichlar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ammo, ushbu tadqiqotlarda Toshkent shahri muzeylarini alohida obyekt sifatida o'rganilmaganligi, ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Qolaversa, dissertasiyani yoritishda mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlarni o'rganish, turizmni rivojlantirish, jahon muzeyshunosligida to'plangan ilg'or tajribalaridan foydalanish, muzeylarning xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan

⁶ Axmedov Э. Республика Узбекистан. Краткий справочник. - Ташкент: Узбекистан, 1993; Фатхуллаев Р. Мухит Рахимов уй-музеи // Мозийдан садо. - Тошкент. 2005 №2; Альмеев Р. Музей и маркетинг // Мозийдан садо. - Тошкент, 2005. № 4 (32); Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. - Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма. 2007; Жабборов И., Рахимова Д. Замонавий музейшуносликнинг долзарб муаммолари // Мозийдан садо. - Тошкент, 2003. № 1 (7); Исмоилова Ж. Музей - тарих кўзгуси // Мозийдан садо. - Тошкент, 2003. № 2 (18); Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. - Тошкент, 2013. - 305 б; Курбонова Д. А. Дунё музейларидаги меросимиз. - Тошкент: LESSON PRESS, 2017. - 164 б; Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. - Тошкент, San'at. 2010. - 154 б.; Левтеева Л. Тошкент музейлари // Мозийдан садо. - Тошкент, 2009. - № 3. - Б. 33; Фатхуллаев Р. Музей ишида замонавий ахборот технологияси // Мозийдан садо. - Тошкент, 2002. № 2 (14); Ҳабибуллаев Н. Темурийлар тарихи давлат музейи // Мозийдан садо. - Тошкент, 1999. № 4 (32); Ёрмухаммедов Ў. Нажотбахш қарор // Гулистон. - Тошкент, 1995. № 2; Воҳидов Ш., Ёқубов Ж. Кичик масканларнинг улкан вазифалари // Мозийдан садо, Тошкент, 2000. № 2; Тошмухаммедова О. Ойбек уй-музейида адибнинг ёд этиб // INFOLIB. №3. 2018.

⁷ Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари фаолияти мисолида) т.ф.н. дисс... автореферати. - Тошкент, 2009; Алмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991-2000 гг.) Автореферат дис... д-ра. ист. наук - Ташкент, 2012. С. 50; Курбонова Д. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарих ва маданий ёдгорликлар. т.ф.н. дисс... автореф. - Тошкент, 2009; Ўша муаллиф. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекшлаш тамойиллари. Тарих фанлари доктори (DSc). дисс. Автореферат. - Тошкент, 2020; Мухамедова М. Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX асрнинг II ярми - XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. - Тошкент, 2020; Файзиёва В.С. Ўзбекистон давлат санъат музейи: тарихи, ривож ва истикболи (XX-XXI асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. 52 б; Исмаилов А. Ўзбекистоннинг интеллектуал ривож тарихи ва фан музейларини шакллантириш тенденциялари (Ўзбекистон фанлар академияси мисолида). Тарих фанлари доктори (DSc). дисс. Автореферат. - Тошкент, 2023; Миралиева Ш. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истикболлари. Тарих фанлари бўйича номзодлик диссертацияси. - Тошкент, 2019. Боймирзаев С. О'zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining shakllanishi va rivojlanishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent. 2023; Elmuratova Sh. O'zbekiston uy-muzeylarining tarixiy rivojlanishi va madaniy hayotda tutgan o'rni (Toshkent viloyati va Toshkent shahri misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent. 2023; Yunusov M. Samarqandda muzey ishi: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va muzeylashtirish tamoyillari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent. 2023; Axmedjonov N. O'zbekistonda XX asr o'rtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obektlari va muzeylar tarixi (Jizzax viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent. 2023; Boltayev B. Mustaqillik yillarida Buxoro viloyatidagi muassasa, korxonalar muzeylarining tashkil topish va rivojlanish tendensiyasi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent. 2023.

hamkorligini tashkil qilishga oid masalalar jamlangan o'quv qo'llanma, darslik va monografiyalardan ham unumli foydalanildi⁸.

Uchinchi guruh adabiyotlarida muzey kolleksiyalarini o'rgangan xorij mutaxassislari tomonidan nashr etilgan ilmiy maqolalar va tadqiqotlar ham mavzuni keng ko'lamda yoritishga xizmat qiladi⁹. E.H.Eylin Xuper-Grinxill, B.Kirshenblatt, S.Rungard va boshqalarning tadqiqotlari shular jumlasidan.

E.H.Greenhillning «Muzeylar va ularga tashrif buyuruvchilar» nomli monografiyasida muzey xodimlariga amaliy takliflar berib, muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun kerakli ta'minotini tashkil etish talablari haqida mutaxassislarga tavsiyalar bergan. Shuningdek, muzeyshunoslik sohasiga doir A.Aksyonova, S.Girigoreva, Ye.Andrianova, V.Gorshkova, E.Belekeva¹⁰ kabi xorij mutaxassislari tadqiqotlarida viloyat muzey va muzey qo'riqxonalari, o'lkashunoslik muzeylari, muzey fondlari haqida ma'lumotlar berilgan. Xorijiy tadqiqotchilar asarlarining aksariyat qismi umumiy ma'lumotlar bilan cheklanganligi bilan ajralib turadi. Mazkur tarixiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki bu asarlar va tadqiqotlarda Toshkent shahrida joylashgan ba'zi muzeylarning tarixi, shakllanish bosqichlari, uy-muzeylarning vujudga kelishi va bugungi kundagi ahamiyatining ayrim jihatlari yoritilgan xolos.

Ushbu tadqiqot ishida esa Toshkent shahridagi muzeylar hamda uy-muzeylarini tashkil topishi va rivojlanishi bosqichma-bosqich kompleks tarzda alohida o'rganildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq «O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish va targ'ib qilish» (2017-2021-yy.) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Toshkent shahridagi muzeylar tarixini (1876-2023 y) ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1876-2023-yillarda Toshkent shahridagi muzeylar tarixi va faoliyatini yoritib berish;

⁸ Исмаилова Ж. Х., Мухамедова М. С. Замоनावий жаҳон музейшунослиги. Ўқув қўлланма. - Тошкент, 2013. - Б.310; Исмаилова Ж, Нишанова К, Мухамедова М. Музей ва жамият. Олий таълим муассасалари учун дарслик. - Тошкент, 2015. - Б.174; Мухамедова М. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда миллий ва халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX - XXI асрлар). - Тошкент, 2017. - Б. 297; Курбонова Д. Дунё музейларидаги меросимиз. - Тошкент, 2017. - Б. 166; Камилова Х, Рахимова З, Раҳматуллаева У. Ўзбек миллий либослари ва анъанавий кадрятлар. - Тошкент, 2018. - Б.332 б.

⁹ E.H. Greenhill. Museums and Their Visitors. Routledge: 1994; B.G. Kirshenblatt. Destination Culture: Tourism, Museums, and Heritage. University of California Press: 1998; Rungard S. Marketing and Public Relations Handbook for Museums, Galleries and Heritage Attractions. Altamira Press: 2000.

¹⁰ А.И.Аксёнова. Суздаль. XX век: Из истории города-музея и музея-заповедника. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Москва. 2003; С.Е. Гиригорьева. История Томского областного краеведческого музея: 1920-2000-е гг. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Москва. 2011; Е.Н.Андреанова. Коллекция фотографий документального фонда государственного центрального музея современной истории России как источник по истории повседневности. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Москва.2012; В.В.Горшкова. Коллекция икон Ярославского художественного музея: истоия и комплектования,проблемы атрибуции и экспонирования.Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Москва. 2016; Э.А.Белекева. История музейного дела в Республике Алтай: 1918-2009. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Москва. 2010.

mustaqillik yillarida Toshkent shahridagi muzeylar faoliyatini o'rganish;
memorial muzeylarni rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;
adabiy merosni muzeylashtirish asosida tashkil etilgan uy muzeylar faoliyatini tadqiq etish;
milliy turizmni shakllanishida nodavlat muzeylarning o'rini ochib berish;
turizm infratuzilmasini rivojlanishida Toshkent muzeylarining imkoniyatlarini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahridagi davlat muzeylari, uy muzeylari, nodavlat va muassasa muzeylari belgilangan.

Tadqiqotning predmeti Toshkent shahri muzeylari tarixi va faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xronologik, obektivlik, taqqoslash, statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Toshkent shahri muzeylarining tashkiliy faoliyati tadrijiy - *shakllanish bosqichida*: 1875-1917-y.y.da 2 ta muzey «Toshkent muzeyi» va «S.P. Zaverinning Turkiston maxsulotlari namunalarning savdo muzeyi»; *rivojlanish bosqichida*: 1917-1990-y.y.da 19 ta muzey: ulardan 8 tasi davlat muzeylari, 10 tasi uy muzeylari, 1 ta muassasa muzeylari; *takomillashuv bosqichida*: 1991-2024-y.y.da muzeyshunoslikni ikki bosqichli dastur asosida 1991-2016-y.y.da muzeylarning moddiy-texnik bazasining takomillashuvi 6 ta muzey; 2016-2024-y.y.da eksponatlarni idenfikasiya qilinishi, Davlat muzey katalogini (goskatalog.uz) shakllantirish 16 ta muzey faoliyati asosida ochib berilgan;

Toshkent shahridagi 5 ta muzey (V.I. Lenin markaziy muzeyining Toshkent filiali, SSSR Xalqlar do'stligi muzeyi, Yu. Fuchuk muzeyi, Komsomol muzeyi, Osori atiqalar muzeyi) ning faoliyatini alohida davom ettirishga ehtiyoj yo'qligi sababli tugatilganligi, ularning fondlarini 1992-yilda o'zbek xalqi tarixiga oid mavzulashirilgan ekspozitsiyalarni qayta tashkil etish maqsadida O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondiga qo'shilganligi dalillangan;

Toshkent shahrida 1980-yildan tashkil etila boshlagan 14 ta uy muzeylari ixtisoslik yo'nalishi faoliyatlari (adabiyot, san'at-raqs, rassomchilik, musiqa) bo'yicha o'rganishda uy muzey fond topilmalari (shaxsiy xujjatlari, qo'lyozmalari, xat yozishmalari, fotosuratlar, xususiy kolleksiyalar, asarlar va kiyim-kechaklar) bir shaxs faoliyatini mukammal o'rganadigan, bir-birini takrorlamaydigan artefaktlar asosida shakllantirilganligi asoslab berilgan;

O'zbekistonda nodavlat va xususiy muzeylarining rivojlanishi so'nggi besh yilda yuqori bosqichga ko'tarilganligi, mavjud beshta xususiy muzeylarning barchasi Toshkent shahriga to'g'ri kelishi, xususiy muzeylarni ko'proq tashkil etish maxalliy va xorijiy sayyohlar salmog'ining ortishiga olib kelishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Toshkent shahridagi davlat, nodavlat va uy muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish, xususan, muzey fondlarini yangi ma'lumotlar va eksponatlarni mazmunan boyitishda foydalanilgan;

Toshkent shahridagi muzeylarga bag'ishlangan barcha ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalarning o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlari, miqdor va sifat darajasi aniqlangan;

Oliy o'quv yurti talabalari uchun tarix, muzeyshunoslik san'atshunoslik, madaniyatshunoslik ixtisoslik fanlari doirasida o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar tayyorlashda foydalanish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ilmiy tadqiqot ishida tarix fanida bugungi kunda amalda foydalanilayotgan zamonaviy yondashuv hamda turli uslublarning qo'llanilganligi, O'zbekiston milliy arxivi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasidagi muzeyshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar, muzeyshunoslik sohasidagi tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy matbuot materiallariga asoslanganligi hamda tarixiy-qiyosiy tahlillar asosida xulosalarning mavjudligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, dissertatsiya ma'lumotlaridan amaliyotda foydalanilganligi hamda olingan natijalarni vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XIX asr ikkinchi yarmidan hozirgi kunga qadar Toshkent shahrida faoliyat yuritgan muzeylarining shakllanishi, rivojlanishi va muzeylashtirish tamoyillari tizimli tahlil asosida yoritilganligi bois ulardan ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish, ta'mirlash va saqlash, muzeylar faoliyati va turizm sohasida amalga oshirilayotgan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XIX asr ikkinchi yarmidan hozirgi kunga qadar Toshkent shahri muzeylari: shakllanishi, rivoji va muzeylashtirish tamoyillari mavzusiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Toshkent shahridagi V.I. Lenin markaziy muzeyining Toshkent filiali, SSSR Xalqlar do'stligi muzeyi, Yu. Fuchuk muzeyi, Komsomol muzeyi, Osori atiqalar muzeyining faoliyatini alohida davom ettirishga ehtiyoj yo'qligi sababli tugatilganligi, ularning fondlarini 1992-yilda o'zbek xalqi tarixiga oid mavzulashtirilgan ekspozitsiyalarni qayta tashkil etish maqsadida O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondiga qo'shilganligiga oid materiallardan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi faoliyatini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Fanlar akademiyasining 2023-yil 27-fevral №3/1255-388-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriy qilinishi tarixiy-madaniy yodgorliklar tarixini o'rganishga, yosh avlodni madaniy me'rosga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam bermoqda;

Toshkent shahri muzeylarining tashkiliy faoliyati tadriji: shakllanish bosqichida:1875-1917-y.y.da 2 ta muzey «Toshkent muzeyi» va «S.P. Zaverinning Turkiston maxsulotlari namunalarining savdo muzeyi»; rivojlanish bosqichida: 1917-1990-y.y.da 19 ta muzey: ulardan 8 tasi davlat muzeylari,10 tasi uy muzeylari, 1 ta muassasa muzeylari; takomillashuv bosqichida: 1991-2024-y.y.da muzeyshunoslikni ikki bosqichli dastur asosida 1991-2016-y.y.da muzeylarning moddiy-texnik bazasining takomillashuvi 6 ta muzey; 2016-2024-y.y.da eksponatlarni idenfikatsiya qilinishi, Davlat muzey katalogini (goskatalog.uz) shakllantirish 16 ta muzey faoliyatiga oid manbalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2021-yil 17-martda efirga uzatilgan "Ochiq dars" ko'rsatuvining ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi

“O‘zbekiston” teleradiokanali davlat unitar korxonasi 2022-yil 8-fevraldagi 06-28-217-sonli ma’lumotnomasi). Natijada muzeylarning vujudga kelishi, rivojlanish va tarixiy bosqichlari, shaxsiy kolleksionerlar tomonidan tashkil qilingan nodavlat muzeylar ahamiyatiga oid ma’lumotlar teletomoshabinlar tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Toshkent shahrida 1980 yildan tashkil etila boshlagan 14 ta uy muzeylari ixtisoslik yo’nalishi faoliyatlari (adabiyot, san’at-raqs, rassomchilik, musiqa) bo’yicha o’rganishda uy muzey fond topilmalari (shaxsiy xujjatlari, qo’lyozmalari, xat yozishmalari, fotosuratlar, xususiy kolleksiyalar, asarlar va kiyim-kechaklar) bir shaxs faoliyatini mukammal o’rganadigan, bir-birini takrorlamaydigan artefaktlar asosida shakllantirilganligiga oid materiallardan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi faoliyatini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 2023-yil 27-fevral №3/1255-388-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriy qilinishi Toshkent shahridagi uy muzeylarini o’rganishga, muzey tashrifchilarini tariximizga qiziqishini ortishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda nodavlat va xususiy muzeylarining rivojlanishi so’nggi besh yilda yuqori bosqichga ko’tarilganligi, mavjud beshta xususiy muzeylarning barchasi Toshkent shahriga to’g’ri kelishi, xususiy muzeylarni ko’proq tashkil etish maxalliy va xorijiy sayyohlar salmog’ining ortishiga olib kelganligi to’g’risidagi natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyining 2023-yil 8-fevraldagi 27-sonli ma’lumotnomasi). Natijalarning qo’llanilishi, taqdim etilgan arxiv hujjatlari va foto nusxalar orqali muzey fondini boyitish imkoniga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta konferensiyalarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro konferensiya hamda 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o’tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 16 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 ta maqola respublika jurnallarida, 3 ta xorij jurnalida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti aniqlangan, uning o’rganilish darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Toshkent shahridagi muzeylar faoliyatining rivojlanish bosqichlari”** deb nomlangan birinchi bobida XIX asr ikkinchi yarmi - XXI asrning birinchi yarmiga qadar Toshkent shahrida shakllangan muzeylar rivojining me’yoriy-

huquqiy asoslari, muzeylarni o'zbek xalqi tarixini targ'ib etishdagi o'rni masalalari ochib berilgan. Mazkur bobning **“Muzeyshunoslik sohasining me'yoriy-huquqiy asoslari”** nomli birinchi bandida Rossiya imperiyasining 1886-yil 16-iyulda qabul qilingan “Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom”ga asosan Turkiston o'lkasidagi muzeylarni boshqarish 1886-1904 yillarda faoliyat yuritgan o'lka bosh boshqarmasi ya'ni Maxsus qo'mita ixtiyoriga berilgan. 1906 yilda faoliyati qayta tiklangan Maxsus qo'mita kutubxona va muzey ishiga oid yangi qonun-qoida tasdiqladi.

1917-yil fevral va oktyabr inqiloblaridan so'ng boshqa sohalar qatorida muzeylar ham milliylashtirila boshlandi. 1918-1920 yillar oralig'ida muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat boshqaruv tizimi joriy etildi. Turkiston ASSR Xalq Komissarlari sovetining 1920-yil 31-iyulda “Turkiston o'lkasidagi ayrim shaxslar va jamiyatlar ixtiyorida bo'lgan san'at asarlari, qadimgi yodgorliklarni ro'yxatdan o'tkazish, hisobga olish hamda qo'riqlash haqida”gi maxsus qarori e'lon qilindi¹¹. Dastlabki vaqtlarda Sovet hukumati tomonidan muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha tadbir etilgan huquqiy hujjatlarda osori-atiqalarni milliylashtirish, madaniy yodgorliklarni asrash, yodgorlik yoki muzey kolleksiyalarining muhim ahamiyatga ega ekanligi aks etgan.

1921-yil 22-mayda Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining Maorif Xalq Komissarligi huzuridagi Turkiston san'at va antik davr yodgorliklarini muhofaza qilish qo'mitasi tuzildi¹². Qo'mita Turkomstaris deb nomlanib, O'rta Osiyodagi barcha muzeylarni boshqarish, barcha antik davr va san'at yodgorliklarini ro'yxatga olish, ularni muhofaza qilish, ta'mirlash va restavratsiya qilish, sohaga oid materiallarni to'plash va ilmiy qayta ishlashdan iborat edi¹³. Bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgan dastlabki davrda, milliylashtirish jarayonlari hukm surayotgan paytda madaniy sohada tuzilgan bu qo'mita O'rta Osiyo hududidagi barcha muzeylar jumladan, Toshkent shahrida tuzilgan muzeylarni muhofaza qilish va muzey ashyolari ro'yxatini shakllantirish ortidan noyob eksponatlarni Markazga jo'natish ishlarini ham bajardi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy sohada istiqbolli o'zgarishlar davri boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 5-avgustdagi «O'zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida»gi 402-son qaroriga binoan Fanlar akademiyasining O'zbekiston tarixi muzeyiga Davlat muzeyi maqomi berildi¹⁴. 1994-yil 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi VM-618-sonli Qarori¹⁵ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvarda

¹¹ ЎзМА. Р-394-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 7-варақ.

¹² *Turkomstaris* - 1923-yilda Sredazkomstaris nomini oldi. 1924-1936-yillardagi milliy chegaralanish munosabati bilan 1926-yil may oyidan boshlab bir necha bosqichda tarqatib yuborilib, milliy qo'mitalar tashkil etildi. O'zbekistonda yodgorliklarni muhofaza qilish O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi qoshida 1928-yil oxiridan 1932-yil iyunigacha O'zkomstaris faoliyat yuritdi.

¹³ ЎзМА. Р-394-фонд, 1-рўйхат, 13-иш, 18-варақ.

¹⁴ Исмаилов А. *Фанлар Академияси тизимида Ўзбекистон тарихи давлат музейининг тутган ўрни*// Таълим ва инновацион тадқиқотлар. №5. 2021. - Б.25.

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 23 декабрда қабул қилинган "Республика музейлари фаолиятини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Халқ сўзи. 1994 йил 24 декабрь.

qabul qilgan “O‘zbekmuzey” tashkilotini tashkil etish PF-1913-sonli Farmonining qabul qilinishi muzeyshunoslik sohasida tub burilish yasadi¹⁶.

Ko‘p ming yillik tarixga ega mustaqil O‘zbekistonning hozirgi salohiyatini, uning jahon hamjamiyatiga dadil kirib borishini va xorijiy davlatlarning mamlakatimiz bilan olib borayotgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy aloqalarini ko‘rsatish, xalqimiz ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy tafakkurida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarni aks ettirish hamda yosh avlodni istiqlol samaralaridan faxrlanish ruhida tarbiyalash maqsadida 1994-yil 24-fevraldan e‘tiboran O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida «Mustaqil O‘zbekiston» ekspozitsiyasi yaratildi. Ushbu ekspozitsiyaning yaratilishi kelajak avlod tarbiyasida keng qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-yil 27-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-261-son qarorida 2022-2023-yillardan e‘tiboran davlat muzeylarida qo‘shimcha xizmatlar tashkil etilishi, 2023-yildan e‘tiboran onlayn do‘konlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilangan¹⁷.

Mazkur bobning ikkinchi bandi **“Toshkent shahridagi muzeylarning shakllanishi va tarixiy aspektlari”** deb nomlanadi. Unda Turkiston o‘lkasida tashkil etilgan ilk muzey, uning rivojlanish bosqichlari, sovet davrida tashkil etilgan muzeylar va ularning tarixiy aspektlari tavsiflangan.

Qo‘qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olish jarayonida Qo‘qon xoni Xudoyorxon (1845-1875) davriga oid bo‘lgan 5 026 varaq hujjat va 151 ta saroyga tegishli bo‘lgan daftar Peterburgda imperator kutubxonasiga jo‘natilgan¹⁸.

Rus general-mayyori A.Abramov Buxoro amirligining harbiy qo‘mondonlaridan biri Jo‘rabek saroyi talanganda amirlikka tegishli bo‘lgan 100 dan ortiq qo‘lyozmalar topilgan. Bu qo‘lyozmalar taftish guruhi tomonidan Toshkentga jo‘natilgan¹⁹.

O‘zbekiston milliy arxivi fondi hujjatlarda saqlanayotgan ma'lumotlarga ko‘ra, Xiva xonligi tegishli qo‘lyozma va hujjatlar xon saroyini musodara qilish vaqtida 300 yaqin kitoblar shundan, 129 nomdagi 140 jildli tarixiy asarlar, 50 jild huquqiy-diniy kitoblar, 18 ta Qur'on Karim nusxasi va 50 ta darslik kitoblari to‘plangan va markazga jo‘natilgan²⁰.

O‘rta Osiyo xalqi uchun ma‘naviy yangilik bo‘lgan, ochilishi mo‘ljallangan muzeyga davlat tomonidan bino ajratilmagan. Natijada, general N.A.Mayev o‘ziga qarashli ipakchilik maktabi binosidan muzey uchun ikki xona ajratadi²¹. Shu tariqa 1876 yilda dastlab Toshkent muzeyi nomi bilan shakllangan bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining bosh muzeyiga aylangan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga tamal toshi qo‘yilgan.

Dastlabki davrda ushbu muzey fondi numizmatika, etnografiya, geologiyaga oid turli to‘plamlar bilan boyigan. Qolaversa, Rossiya imperiyasi tomonidan o‘lkani

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилган "Музейлар тўғрисида"ги Қонуни // Халқ сўзи. 1998 йил 12 январь.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining joriy arxivi (2023-yil 1-chorakda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisoboti).

¹⁸ Аминов М. Шаҳри азим Тошкент // Фан ҳақида суҳбатлар. №40. 1983. – Б. 8.

¹⁹ ЎзМА. И-1-фонд, 15-рўйхат, 69-иш, 66-варак.

²⁰ Аминов М. Шаҳри азим Тошкент // Фан ҳақида суҳбатлар. №40. 1983. - Б. 9.

²¹ ЎзМА. И-72-фонд, 1-рўйхат, 32-иш, 12-варак.

bosib olish mobaynida xonliklardan va mahalliy aholidan tortib olingan buyumlarning arziyasi qismi evaziga muzey eksponatlari ortib borgan²². Mansabdor shaxslar qo‘lga kiritgan moddiy va ma‘naviy ashyolarni muzeyga topshirib turgan. Masalan, Semirechenskiy viloyati gubernatori general-leytenant Kolpakovskiy qashqarlik askarlar uchun yasalgan, did bilan ishlangan qurollardan bir nechtasini sovg‘a tariqasida yuborgan²³. Avliyoota uyezdi rahbari general-leytenant V.A.Gerua esa xitoylik hunarmandlar tomonidan qo‘l mehnati asosida yasalgan mis ko‘zachalarni muzey fondi uchun jo‘natadi²⁴. Lekin Turkiston o‘lkasi bo‘ylab turli maqsadda to‘plangan osori atiqalarning deyarli 80 foizi Rossiyaning muzey va kutubxonalariga jo‘natilgan. Nufuzli shaxslar va kolleksiyonerlar tomonidan yig‘ilgan ashyolar ham salmoqli o‘ringa ega edi.

Tabiat muzeyi 1930-yilda tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya bilan qiziquvchilar tashabbusi bilan Toshkentning Eski shahar qismida Tabiat muzeyi tashkil etilgan. Bu muzey “Toshkent muzeyi”ning tarkibidan ajralib chiqdi²⁵.

O‘rta Osiyoda ilk bor tashkil etilgan badiiy muzey bu Toshkent san‘at muzeyidir. 1918-yil 19-aprelda Turkiston o‘lkasi Xalq Komissariati kengashining farmoniga asosan, Xalq universiteti muzeyi sifatida asos solingan. Qisqa vaqtdan so‘ng muzey markaziy badiiy muzeyga aylanadi.

O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi faoliyati va muzey evolyutsiyasiga nazar solsak 1918-1924 yillar davomida Markaziy badiiy muzey sifatida, 1924-1929 yillarda Toshkent san‘at muzeyi, 1929-1949 yillarda O‘zbekiston SSR san‘at muzeyi, 1949-1991 yillarda O‘zbekiston SSR davlat san‘at muzeyi, 1991 yildan boshlab O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda²⁶.

Hunarmandlik ko‘rgazmasi zamirida tashkil qilingan Amaliy san‘at (hunarmandchilik) muzeyi 1937-1960 yillar davomida Hunarmandchilik muzeyi, 1960-1997 yillarga qadar "O‘zbekiston amaliy san‘at asarlari doimiy ko‘rgazmasi", 1997-yildan ko‘rgazma O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufiga o‘tkazilgan va "Davlat Amaliy san‘at muzeyi" maqomiga ega bo‘lgan²⁷.

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi ko‘p asrlik o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘lyozmalar, turli hujjatlar, xotiralarni to‘plovchi, saqlovchi va ko‘rgazmali materiallar tarzida namoyish etuvchi noyob madaniy-ma‘rifiy va ilmiy-tadqiqot muassasidir. Muzey dastlab 1939 yil Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan Davlat komiteti qoshidagi ko‘rgazma shaklida barpo etilgan.

1947-yili ko‘rgazma zamirida Adabiyot muzeyi tashkil topgan. 1958 -1968 yillarda Adabiyot muzeyi O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti qoshiga o‘tkazilgan. 1967-yil 18-yanvarda “O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Adabiyot muzeyi haqida”gi O‘zbekiston SSR hukumat qarori qabul

²² Исмоилова Ж.Илмий ва маърифий маскан // Мозийдан садо. - Тошкент. 2005 №2. – Б.3.

²³ Туркестанские ведомости. № 15. 1878 года 11 апреля.

²⁴ Туркестанские ведомости. № 10. 1878 года 7 марта.

²⁵ ЎзМА. Р-394-фонд, 1-рўйхат, 103-иш, 89-варақ.

²⁶ Миронов А.М. Художественный музей в Ташкенте. – Т.: Музей УЗССР, 1929 С 12

²⁷ Ўзбекистон давлат санъат музейининг халқ амалий ва меъморчилик санъати намуналари: тарихи, манбавий аҳамияти ва сақлаш муаммолари. – Тошкент: Renessans press, 2021. Б. 9.

qilingan. Qarorga ko‘ra, muzeyga yangi to‘rt qavatli bino berilib, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining mustaqil ilmiy va ilmiy-ma‘rifiy muassasasiga aylantirildi²⁸.

Mazkur bobning uchinchi bandi **“Mustaqillik yillarida tashkil topgan muzeylar faoliyati”** deb nomlanadi. Unda Mustaqillik yillarida muzeyshunoslik sohasi uchun yangi bosqich boshlanganligi, bu ayniqsa, yangi muzeylarni tashkil etilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zamonaviy ekspozitsiyalarni tashkil etish, ularni yangi texnologiyalar bilan ta‘minlanishi, muzey turizmini rivojlanishida muzeylarning tutgan o‘rni tavsiflangan.

Yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarimiz nomini tiklash va ularning boy moddiy-madaniy merosni yosh avlodga yetkazib berish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. 1996-yil 18-oktyabrda buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Temuriylar tarixi davlat muzeyi o‘z faoliyatini boshladi. Muzeydagi Temuriylar tarixiga oid noyob eksponatlar O‘zbekiston viloyatlaridagi yirik muzeylardan buyumlar keltirilgan²⁹. 1996-yilda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ko‘rgazmada namoyish etilgan Karl VI ning Amir Temurga maktubi nusxalari muzeyga taqdim etilgan.

O‘zbekistonda ommaviy jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish, o‘sib kelayotgan jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Islohotlar qatorida Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ham tashkil etildi. Muzey 1996-yil 14-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Olimpiya shon-shuhrati muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 284-sonli Qaroriga asosan 1996-yil 1-sentyabrda tashkil etilgan³⁰. O‘zbekiston mustaqilligi yillarida sportchilarimizning jahon, Yevropa birinchiliklari, Osiyo, Markaziy Osiyo o‘yinlari, Toshkent va xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilayotgan turli xalqaro turnirlarda erishgan yutuqlari, qo‘lga kiritgan sovrinlari muzey eksponatlarining asosini tashkil etadi³¹.

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ham o‘ziga xos muzeylardan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan 2002-yil 31-avgustda Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuida barpo etilgan. Muzey barpo etilgan joy XX asrning 20-yillaridan to Ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar sovet davlatining jazo organlariga qatlgoh bo‘lib xizmat qilgan³².

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-noyabdagi “Adiblar xiyobonida atoqli so‘z san‘atkorlari va jamoat arboblari xotiralariga bag‘ishlab yodgorlik majmualarini o‘rnatish hamda “Toshkent muzeyi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq Fanlar akademiyasi

²⁸ Государственный музей литературы имени Алишера Навои АН РУз. // Academy.Uz.12 февраля 2015 года

²⁹ 1997 йил 26 майда «Ўзбекистон Республикаси музей ва илмий муассасалари фондидан Амир Темур ва темурийлар даврига оид экспонатларни Темурийлар тарихи давлат музейига ўтказиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 259-сонли Қарори.

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 14 августдаги “Олимпия шон-шухрати музейини ташкил этиш тўғрисида”ги 284-сонли Қарори.

³¹ Олимпия шон-шухрати музейи // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2000.

³² Ҳасанов Б. Қатагон қурбонлари хотираси давлат музейи. Йўл кўрсаткич. - Тошкент: Akadernashr, 2022. Б.4

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali “Toshkent muzeyi” tashkil etilgan³³. Toshkent muzeyi ekspozitsiyasi 9 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim: "Qadimgi davrda Toshkent", ikkinchi bo‘lim “So‘nggi bronza va tosh davrida Toshkent”, uchinchi bo‘lim “Antik davrda Toshkent”, to‘rtinchi bo‘lim “Ilk o‘rta asrlarda Toshkent”, beshinchi bo‘lim “IX-XI asrlarda (rivojlangan o‘rta asrlarda) Binkat”, oltinchi bo‘lim “XV-XVI asrlarda Toshkent”, ettinchi va sakkizinchi bolimlar bo‘limlar “Toshkentlik olimlar”, to‘qqizinchi bo‘lim “Etnografiya” deb nomlangan bo‘lib, bu bo‘limlarda Toshkent vohasini qadimgi tosh davridan to XIX asrgacha bo‘lgan tarixini aks ettirgan 1000 ga yaqin eksponatlar mavjud³⁴.

2019-yil 9-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi tarkibida bunyod etilgan “Shon-sharaf” muzeyining mohiyati va ahamiyati hususida alohida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi jahon urushi yillarida ajdodlarimiz jasorati, front orqasidagi o‘zbek xalqining matonati, O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonolari, evakuatsiya qilingan bolalar va ilm-fan vakillari xaqidagi ma’lumotlar bari aynan shu yerda o‘zining to‘liq aksini topgan³⁵.

Dissertatsiyaning “**Toshkent shahridagi uy muzeylarini tadrijiy rivoji**” nomli ikkinchi bobida Toshkentda shakllangan memorial muzeylarni rivojlanish bosqichlari, ularning faoliyat yo‘nalishlari va adabiy merosni muzeylashtirish asosida tashkil etilgan uy muzeylar faoliyati tadqiq etilgan.

Mazkur bobning “**Toshkentdagi memorial uy muzeylarning shakllanishi, klassifikatsiyasi va rivojlanish bosqichlari**” deb nomlangan birinchi bandida memorial muzeylar, odatda, davlat tomonidan muhofaza qilinayotgan yodgorlik majmualari (voqea bo‘lib o‘tgan joylar, mashhur kishilar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq uylar, memorial muzeylar to‘plamlari va h.k.) negizida barpo etilishi yoritilgan.

Musiqqa madaniyati rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan kompozitor, SSSR xalq artisti, milliy opera asoschilaridan biri, dirijer Muxtor Ashrafiy tavalludining 70 yilligi munosabati bilan 1982-yil 11-iyunda uning 1965-1975 yillar yashab ijod etgan uyida uy-muzeyi tashkil qilingan. Muzey uning hayoti va ijodini yoritishga bag‘ishlangan 6 ta bo‘limdan iborat³⁶.

O‘.Tansiqboyev uy-muzeyi 1967 yildan boshlab uning rafiqasi Yelezaveta Yakovlevna yashab kelgan xonadonda muzey tashkil qilindi. Rassomning mazkur uyi 1981-yil 16-yanvardan uy-muzey sifatida faoliyat boshlagan bo‘lsada, ustaxona 1978-yildan yodgorlik binosi deb e‘lon qilingan. O‘.Tansiqboyev memorial uy-muzeyini uning hayoti va ijodi misolida saqlash, o‘rganish va ommalashtirishga

³³ Исмоилов А. Ўзбекистон тарихи давлат музейининг илм-фан ривожиди тутган ўрни // *Замонавий дунёда музейшуносликнинг долзарб масалалари*” халқаро илмий-амалий анжуманд материаллари. 1-китоб. – Тошкент. 2021. – Б.165.

³⁴ “Toshkent muzeyi” joriy arxivi : 2023 yil hisoboti.

³⁵ Миннатдор авлодлар оталар жасорати билан умрбод фахрланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг хотира ва кадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // *Халқ сўзи*. №98. 2021 йил 10 май.

³⁶ Темина, Елена. «Теоретические вопросы взаимодействия музыкальных систем устной и композиторской традиции в регионе Востока (на материале творчества М. Ашрафи)». Автореф.. дисс. кандидат. искусств. наук. – Москва. 1984.

qaratilgan. Muzeining memorial qismida rassom umrining oxirgi yetti yilini (1967-1974) o'tkazgan va barcha buyumlar o'z holicha saqlangan³⁷.

1989-yil 13-sentyabr buyuk kompozitor va xofiz, ulkan va bekiyos musiqiy merosimiz sohibi Yunus Rajabiyni 1956-1976 yillar mobaynida yashab ijod qilgan xonadoni uy-muzeiga aylantirildi. Muzeida mingdan ortiq ashulalar, raqs va cholg'u kuylari, maqomlar jam qilingan. Ushbu musiqa asarlari o'zining va shogirdlarining jonli ijrolarida aytilgan. Yunus Rajabiyning o'zbek musiqa merosini to'plashdagi xizmatlari katta. Muzeining ilmiy ro'yxatida jami 2717 ta buyum mavjud bo'lgan³⁸. Muzeida o'zbek musiqasi va maqomlariga ajratilgan alohida zal bo'lib, bunda noyob hujjatlar, kitoblar, foto suratlar, musiqa asboblardan va shu zalga munosib bo'lgan boshqa materiallar ham berilgan.

Toshkent shahri markazida "Sharq gavhari" bo'lmish Tamara xonim Artyomovna (asli Tamara Petrosyan) xotirasiga bag'ishlangan Tamara xonim o'zi yashab ijod etgan xonadoni bugungi kunda uy muzeyi sifatida faoliyat yuritmoqda. 1994-yil 14-iyundan Tamara xonimning doimiy kostyumlar ko'rgazmasi Tamara Xonim uy muzeyiga aylantirilgan Tamara xonim butun xayotini o'zbek xalq raqslarini o'rganish va uni targ'ib etishga bag'ishladi. 2008-yilda Tamara xonim Uy-muzeyi ushbu birinchilar qatorida paranji tashlagan raqqosa ayol hayoti haqida hikoya qiluvchi ko'rgazma namunalarning boy to'plamini jonlantirish va qayta tiklash uchun elchi Spratlen xonim Madaniy merosni saqlash fondidan 34 000 AQSh dollari miqdorida grant olgan³⁹.

